

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH

Farxodov Zafar Qaxramon o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Turizm fakulteti

2-bosqich talabasi email: fazliddinzafar59@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatining samaradorligini oshirish tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotni shakllantirishda ekologik muvozanat, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarishdagi chiqindilarning minimalizatsiyasi va resurslarning samarali boshqaruvi asosiy vazifa va omil sifatida ko'riladi va shundan kelib chiqib hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining ekologik barqarorlikka qaratilgan islohotlar, sirkulyar iqtisodiyotning nazariy asoslari va ularni milliy strategiyalarga integratsiya qilish mexanizmlari batafsil tahlil qilinadi. Hamda yashil iqtisodiyotga o'tishning turizmga bog'liqlik joylari va unga ta'siri haqida atroflicha so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, barqaror o'sish, sirkulyar iqtisodiyot, davlat siyosati, ekologik muvozanat, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik xavfsizlik, raqamli iqtisodiyot, xalqaro tajriba, atrof-muhitni muhofaza qilish.*

KIRISH

XXI asrning ikkinchi choragiga ya'ni 2025-yilga kelib, insoniyat jiddiy ekologik va iqtisodiy holatlarni qarshi olmoqda. Global iqlim o'zgarishlari, resurslarning cheklanganligi va sanoat ishlab chiqarishining atrof-muhitga salbiy ta'siri natijasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi xalqaro kun tartibiga jadal kirib kelmoqda. Bugungi dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar kishini sergaklantirmoqda. Aynan shunday sharoitda yashil iqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yondashuvlar nafaqat ekologik muvozanatni tiklash, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishga xizmat qilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyotga o'tish hamda qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish orqali global YaIM o'sish sur'atlari 2050-yilgacha har yili o'rtacha 1,5 foizga oshishi mumkin⁴⁹. Shu bilan birga, karbonat chiqindilarini 70 foizga qisqartirish va 15 milliondan ortiq yangi "yashil ish o'rinlari" yaratish imkoniyati mavjudligi ta'kidlanmoqda.

Jahon Bankining bergan ma'lumotiga ko'ra, sirkulyar iqtisodiyotga o'tish global miqyosda 4,5 trillion dollarlik iqtisodiy foyda keltirishi mumkin⁵⁰. O'zbekiston yoki umuman olganda, har qanday davlat uchun iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Biroq iqtisodiy o'sish jarayonida ekologik muvozanat va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli mavjud. Masalan, O'zbekistonda asosiy

⁴⁹ UNEP (2022). Green Economy Progress Measurement Framework.

⁵⁰ World Bank (2021). The Circular Economy: What, Why and How?

energiya manbalari sifatida ko'mir, neft va gazdan foydalaniladi hamda iqtisodiyot ushbu resurslarga tayanadi.


Ammo bu holat o'z navbatida tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, sanoat korxonalari va transport vositalari atmosferaga katta miqdorda zararli gazlar chiqaradi. Bu esa havo sifatining yomonlashuvi, aholining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, turli kasalliklarning kuchayishi yoki yangidan yangi kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Har yili atmosferaga millionlab tonna zararli moddalar chiqariladi va bu holat o'z navbatida ekologik muhitda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. (1-jadval)

1-jadval

O'rtacha atmosferaga chiqadigan zararli moddalar miqdori ⁵¹

1 yilda o'rtacha atmosferaga chiqadigan zararli moddalar miqdori			
T/	Modda nomi	Kimyoviy formulasi	Miqdori
1	Karbonad angidrid	CO ₂	37
2	Azot oksidi	HO _x	0,121
3	Sulfat oksidi	CO ₃	0,07
4	Karbon oksidi	CO	0,429

Ushbu gazlarning asosiy ulushi yuqorida aytib o'tganimizdek sanoat korxonalari, transport va yelektr stansiyalarga to'g'ri keladi bu yesa iqlim o'zgarishiga va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu o'rinda jahon statistikasiga nazar soladigan bo'lsak, 2021-yilgi statistikada, havo ifloslanishidan vafot yetganlar soni 8,08 million nafarni tashkil qilmoqda va bu ko'rsatgich qon bosimidan vafot yetganlardan keying ikkinchi o'rinni yegallagan. Bu juda katta ko'rsatgich hisoblanadi, ammo 1990-2000 yillar orasida iflos havodan vafot yetganlar soni yuqori hisoblanib 10-15 millionni tashkil qilgan va dunyoda birinchi o'rinni yegallagan. 2001-2021 yillar oralig'ida bu ko'rsatgich sezirarli darajada tushgan, ammo qoniqarli emas. Bizning mamalakatimizda ham ming afsuski bunday holat kuzatilmoqda.⁵²



1-rasm

⁵¹ <https://ourworldindata.org> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁵² Our World in Data sayti ma'lumotlari.

Dunyo bo'yicha havo ifloslanishi oqibatida vafot etgan insonlarning yillik statistikasi ⁵³

Yashil iqtisodiyot-bu inson farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va atrof-muhitning degradatsiyasiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan iqtisodiy modeldir¹. U an'anaviy iqtisodiy o'sish yondashuvlaridan farqli o'laroq, ekologik barqarorlikni iqtisodiy siyosatning markaziga qo'yadi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot global iqlim inqiroziga qarshi kurashda eng muhim strategik yo'nalish sifatida e'tirof etilgan⁵⁴. Shu sababli ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va energiya samaradorligini oshirish orqali chiqindilar hajmini kamaytirish masalasi hozirgi davrda nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda respublikamizda bir qator yirik va istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ular orasida eng muhim va strategik ahamiyatga ega dasturlardan biri -bu "Yashil iqtisodiyot" davlat dasturi sanaladi. Mazkur dasturning mazmun-mohiyati energiya resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga bosqichma-bosqich o'tish, chiqindilar hajmini kamaytirish va ularni qayta ishlash, shuningdek, tabiiy resurslar va ekologik muvozanatni muhofaza qilishdan iborat. Dastur doirasida qator institutsional, moliyaviy va texnologik islohotlar boshlab yuborildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli qarori bilan 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tishga doir islohotlarning samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berildi⁵⁵. Mazkur hujjat ijrosini ta'minlash maqsadida, 2023-yil 25-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 561-son qarori qabul qilindi. Qarorda "yashil" infratuzilmalarni rivojlantirish, ushbu sohalarga xususiy investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, moliyaviy vositalarni samarali qo'llash orqali "yashil" faoliyat turlarini tasniflovchi mezonlarni joriy etish belgilandi⁵⁶. Shu asosda suvdan tejamkor foydalanish, ayniqsa, tomchilatib sug'orish texnologiyasiga asoslangan agrotexnik tizimlar keng joriy qilinmoqda. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha muhim qadamlar tashlandi. Jumladan, quyosh, shamol va suv energiyasidan samarali foydalanishga qaratilgan yirik loyiha va dasturlar ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat ekologik muhitni yaxshilash, balki iqtisodiy jihatdan resurslardan tejamkor foydalanish imkonini yaratmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o'tish, yuqorida tahlil etilganidek, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omilidir. Ushbu tamoyillar ayni paytda turizm sohasi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda turizm nafaqat iqtisodiy o'sishning manbai, balki ekologik yuklamani oshiruvchi sohalardan biri sifatida ham qaralmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston kabi turizm salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlarda ekologik toza, barqaror va sirkulyar yondashuvlar asosida turizmni

⁵³ Our World in Data sayti ma'lumotlari.

⁵⁴ UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori - "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida".

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrda 561-son qarori - "Yashil iqtisodiyot sohalarda moliyaviy vositalarni rivojlantirish va tasniflash mezonlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida".

rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Barqaror turizm konsepsiyasi – bu sayyohlik faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish, tabiiy va madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan yondashuvdir. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini turizmدا tatbiq etish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1.ekoturizm va agroturizm yo’nalishlarini rivojlantirish orqali sayyohlarni tabiiy va ekologik jihatdan toza hududlarga jalb qilish;

2.mehmonxona va ovqatlanish ob’ektlarida energiyani tejovchi texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni ajratib yig’ish va qayta ishlash tizimlarini yo’lga qo’yish;

3.qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan turizm infratuzilmasini qurish quyosh panellari yordamida ishlaydigan yotoqxonalar, elektromobillar uchun quvvat stansiyalari;

4.turizm obyektlarida suv tejamkor texnologiyalarni qo’llash, masalan, tomchilatib sug’orish tizimlari bilan bezatilgan bog’lar va landshaftlar

BMTning Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko’ra, yashil va barqaror turizm modeliga o’tgan davlatlarda sayyohlar oqimi 15-20 foizga oshgan, turizmда ishlovchi aholi soni esa ko’paygan⁵⁷. O’zbekistonda ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasi”, “2023–2025-yillarda sirkulyar turizm infratuzilmasini shakllantirish strategiyasi” kabi hujjatlar asosida ekoturizm zonalari, milliy tabiat bog’lari va biosfera hududlarida ekologik marshrutlar yaratilmoqda. Shuningdek, sirkulyar iqtisodiyot yondashuvi asosida turizm sektorida chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, qayta foydalanish va chiqindisiz xizmat ko’rsatish tizimlari joriy etilishi bugungi kunda ayni muddao. Misol uchun, Toshkent viloyatida bir necha mehmonxona komplekslarida chiqindilardan organik kompost ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda⁵⁸. Bu esa nafaqat ekologik yuklamani kamaytiradi, balki mahalliy iqtisodiy faoliyatga qo’shimcha daromad manbai yaratadi.

Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari va ularning iqtisodiy samarasi. Sirkulyar iqtisodiyot – bu mahsulotlar, materiallar va resurslarni imkon qadar uzoq muddat aylanishda ushlab turish, chiqindilarni esa imkon qadar kamaytirish tamoyiliga asoslangan modeldir⁴. Bu yondashuv “ol – ishlab chiq – tashla” modelidan voz kechishni, uning o’rniga “qayta ishlang – foydalaning – tiklang” konsepsiyasini ilgari suradi. 2021-yilgi OECD hisobotiga ko’ra, sirkulyar iqtisodiyotga o’tish Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2030-yilgacha 700 mingta yangi ish o’rni yaratilishiga, chiqindilarning 20 foizga kamayishiga va resurslardan foydalanish samaradorligini 30 foizga oshirishga olib kelgan⁵⁹. O’zbekistonda esa 2024-yilga kelib umumiy chiqindilarning 28 foizi qayta ishlangan bo’lib, bu ko’rsatkich 2020-yilga nisbatan 9 foizga oshgan⁶⁰.

Taklif va yechimlar:

⁵⁷ World Tourism Organization (2023). Tourism for Sustainable Development Goals Report.

⁵⁸ O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi hisobotlari (2024).

⁵⁹ OECD (2021). The Circular Economy in Cities and Regions.

⁶⁰ O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi statistikasi, 2024.

Ekologik ong va yashil tafakkurni shakllantirish bo'yicha tizimli ta'lim yondashuvlarini joriy etish. Hozirgi sharoitda aholining ekologik savodxonligi yetarli darajada emasligi yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Shuning uchun umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimiga "Yashil iqtisodiyot asoslari", "Barqaror rivojlanish" kabi fanlarni bosqichma-bosqich kiritish lozim. Shu bilan birga, ekologik mas'uliyatli fuqarolik ongini shakllantirish uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ko'lamli axborot-targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish zarur.

Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy instrumentlarning o'rni beqiyos. Shu sababli quyidagi choralarni taklif etamiz:

1. Banklar va moliyaviy institutlar uchun yashil kreditlar va subsidiyalar ajratish tizimini kengaytirish;

2. "Yashil obligatsiyalar" mexanizmini rivojlantirish va uni kapital bozorlarida faol ishlatish;

3. Yashil iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun soliq imtiyozlari va grant dasturlarini joriy etish.

Bu chora-tadbirlar sirkulyar iqtisodiyot loyihalariga sarmoya kiritishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Mahalliy darajada "yashil infratuzilma" loyihalarini amalga oshirish. Viloyatlar va tumanlar miqyosida ekologik infratuzilmani rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlarni tavsiya etamiz:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh, shamol) foydalangan holda energiya stansiyalarini qurish;

2. Axlat ajratish, qayta ishlash va kompostlash tizimlarini mahalliy darajada yaratish;

3. Yashil jamoat transporti — elektromobillar, elektr avtobuslar tarmog'ini rivojlantirish.

Bunday loyihalar aholining ekologik muhitga bevosita ta'sirini kamaytiradi va yashil iqtisodiyotni "quyi bosqichda" ham qo'llab-quvvatlaydi va uni rivojlantirishga o'z xissasini qo'shadi.

Raqamlashtirish orqali ekologik monitoring tizimlarini joriy etish. Atrof-muhitni nazorat qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ekologik siyosatning samaradorligini oshiradi. Shu sababli quyidagilarni taklif qilamiz:

1. IoT (Internet of Things) texnologiyalari yordamida chiqindilar, suv, havo ifloslanishini real vaqt rejimida monitoring qilish tizimini joriy etish;

2. Ekologik pasportlashtirish tizimini raqamlashtirish;

3. Sun'iy intellekt asosida resurslarni boshqarish modellarini ishlab chiqish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o'tish – O'zbekistonning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik yo'nalishlardan biridir. Bu jarayon atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishga olib keladi. Yashil iqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini turizmga integratsiya qilish orqali

O'zbekistonda ekologik toza, iqtisodiy samarador va ijtimoiy jihatdan barqaror turizm modelini shakllantirish imkoniyati mavjud. Bu nafaqat sayyohlar uchun jozibador muhit yaratadi, balki milliy iqtisodiyotga qo'shimcha turtki beradi, yangi ish o'rinlari vujudga kelishiga sabab bo'ladi va eng asosiysi, kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslar salomatligini ta'minlaydi. Yuqorida qayd etilganidek, yashil iqtisodiyotning samaradorligi ko'p jihatdan davlat siyosati, xalqaro hamkorlik, moliyaviy mexanizmlar va aholining ekologik madaniyatiga bevosita bog'liq. Shu boisdan quyidagi jihatlar alohida e'tiborga loyiqdir:

1. Davlat darajasida "yashil" iqtisodiy islohotlar uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash va ularning ijrosini ta'minlash;
2. Xususiy sektorni rag'batlantirish orqali ekologik toza texnologiyalarga o'tishni tezlashtirish;
3. Ta'lim va ijtimoiy ongni rivojlantirish orqali ekologik mas'uliyatni oshirish;
4. Ilmiy-texnik yondashuvlar asosida chiqindilarni qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish.

Shuningdek, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish orqali ishlab chiqarish va iste'mol tizimlarini takomillashtirish, resurslar aylanishini ta'minlash ham barqaror o'sishning ajralmas qismidir. Bu orqali nafaqat ekologik muhit yaxshilanadi, balki yangi ish o'rinlari yaratiladi, iqtisodiy faollik kuchayadi, mahalliy infratuzilmalar rivojlanadi. Kelgusida O'zbekistonning yashil iqtisodiyot yo'nalishida yetakchi davlatlardan biriga aylanishi uchun xalqaro tajriba, ilmiy yondashuvlar va innovatsion yechimlarga tayanilgan, puxta strategik rejalashtirilgan siyosat zarurdir. Bu esa nafaqat bugungi, balki kelajak avlod uchun ham yashashga yaroqli barqaror muhit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNEP (2022). Green Economy Progress Measurement Framework.
2. World Bank (2021). The Circular Economy: What, Why and How?
3. Our World in Data sayti ma'lumotlari.
4. Our World in Date sayti statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
5. Our World in Data sayti ma'lumotlari.
6. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori – "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida".
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son qarori – "Yashil iqtisodiyot sohalarida moliyaviy vositalarni rivojlantirish va tasniflash mezonlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida".
9. World Tourism Organization (2023). Tourism for Sustainable Development Goals Report.

10. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hisobotlari (2024).
11. OECD (2021). The Circular Economy in Cities and Regions.
12. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi statistikasi, 2024.